



## Vazirlar Mahkamasi Qarori

**Maxsus elektron tizim orqali ruxsat etish xususiyatiga ega ayrim hujjatlarni berish tartib-taomillari to'g'risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida**

---


86-son qaror, 22.02.2022y.





**Ruxsatnoma olish uchun** ariza berish, ko'rib chiqish, qayta rasmiylashtirish, amal qilish muddatini uzaytirish, amal qilishini to'xtatib turish, ularni o'zgartirish, bekor qilish va tugatishning yagona tartibi belgilandi.





Qaror bilan **27 ta** ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarning pasportlari tasdiqlandi.





Endilikda barcha arizalar **elektron tarzda** “Litsenziya” axborot tizimi (*license.gov.uz*) orqali **dam olish va bayram kunlaridan qat’i nazar, har kuni 24 soat davomida** qabul qilinadi.

Bu bilan fuqarolarning davlat organlariga **“borish” va “kutish”** kabi ortiqcha ovoragarchiliklarga chek qo’yildi.






## Qarorga muvofiq:

Ruxsatnomani olish uchun ariza vakolatli organga “**Litsenziya**” AT yoki **YIDXP** orqali taqdim etiladi.

Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni berish yoki berishni rad etish to‘g‘risidagi qaror talabgorning shaxsiy kabinetiga yuboriladi.







Ruxsatnoma berish haqidagi ariza **birinchi marta** ko'rish jarayonida ruxsat berilishi uchun zarur hujjatlar to'liq bo'lmaganda ushbu arizani ko'rib chiqish **rad qilinmasdan** kamchiliklarni bartaraf etish uchun talabgorga muddat berilishi belgilandi.






Endilikda ruxsat berish yoki ruxsat berishni rad etish to'g'risidagi qarorlarni respublika darajasida qabul qiluvchi vakolatli organlarda mavjud xodimlar orasidan 5 kishidan iborat shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha **Apellyatsiya kengashi** tashkil etiladi.

**Apellyatsiya kengashi** nizolarni tezkor ko'rib chiqib, qonuniy hal qilish imkoniyatini beradi. Lekin fuqarolar xohlasa apellyatsiya kengashiga murojaat qilmasdan to'g'ridan to'g'ri sudga ham murojaat qilishlari mumkin.





**E'tiboringiz uchun rahmat!**

